XALQ DEPUTATLARI PISKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-20-97-10-142-K/25 Piskent tumani

Piskent tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-sonli qonuni, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1119-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Piskent tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Piskent tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari 99 612,8 mln. so‘m va xarajatlari 99 612,8 mln. so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Piskent tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 416,5 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatgichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilga xududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 307,0 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. 2026-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan tashqari) mutloq miqdorda 1m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga;

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0.7 dan 1.3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq:

Suv resurslaridan foydalanganglik uchun soliq stavkasiga 0.7 dan 1.3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsentlar miqdori 7-ilovaga muvofiq;

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 8-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar miqdori 9-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 416,5 mln.so‘m 10-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Miryunusov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Soatov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Sharopov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatgichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Xududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar xar chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning

amaliy naijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, xududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratiladigan mablag‘larningsh maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizima byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayoning ochiqligin ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joyashtirib borilishini ta’minlasinla.

9. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (N.Ubaydullayeva) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Miryunusov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **ARIPOV MUZAFFAR AKBAROVICH**

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Piskent tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming,so‘mda

№	Daromad turlari	Piskent tumani
	JAMI	**99 612 800**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	6 367 320
2	Foyda solig‘i	2 099 050
3	Aylanmadan olinadigan soliq	4 906 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 276 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 982 000
	Aksiz solig‘i jami	8 239 920
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*8 239 920*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 343 200
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	6 234 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 476 280
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 274 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	8 439 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 292 800
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	5 098 000

	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-2 098 200
13	Davlat boji	268 850
14	Yig‘imlar	70 980
15	Jarimalar	303 400
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	40 000

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Piskent tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Piskent tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**99 612 800**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	**28 241 835**
	shundan:	
	“Mening maktabim”	2 533 800
	Madaniyat bo‘limi	5 994 371
	Yoshlar ishlari agentligining xududiy bo‘limi	2 454 628
2	Sport	5 167 023
3	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 142 696
4	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 654 309
	Irrigatsiya bo‘limi	2 517 204
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 374 401
5	Hokimiyat	30 867 470
6	shundan:	
7	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	18 235 218
8	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	1 503 365
9	Zahira jamg‘armasi	1 307 204
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	962 593

11	shundan	
12	Axborot kutubxona markazlari	962 593
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 236 270

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Piskent tuman mahalliy byudjetiga 2026-yil uchun ajratma me’yori

foizda

Hududlar nomi			**Piskent tumani**
QQS	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	9%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	28%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Foyda solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	78%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	80%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	28%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman byudjetiga		100%
Davlat boji	Tuman byudjetiga		5%
Jarima	Tuman byudjetiga		5%
Yig‘imlar	Tuman byudjetiga		6%
Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Tuman byudjetiga		100%

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tumandagi mahallalar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig’i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo’yicha, 1 kv,m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig’i stavkasi 2026-yil uchun (ming so’mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig’i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Bekobod	1,29	5887,51	1,12	504,90
2	Mo‘minobod	1,29	5887,51	1,12	504,90
3	Oybek	1,29	5887,51	1,12	504,90
4	Mitan	1,29	5887,51	1,12	504,90
5	Navoiy	1,29	5887,51	1,12	504,90
6	Yangiobod	1,29	5887,51	1,12	504,90
7	Lolaariq	1,29	5887,51	1,12	504,90
8	Birlik	1,29	5887,51	1,12	504,90
9	Oqtepa	1,29	5887,51	1,02	459,82
10	Do‘stlik	1,29	5887,51	1,02	459,82
11	G‘ayrat	1,29	5887,51	1,02	459,82
12	Murot ali	1,29	5887,51	1,02	459,82
13	Taraqqiyot	1,29	5887,51	1,02	459,82
14	Oqtom	1,29	5887,51	1,02	459,82
15	Saidobod	1,29	5887,51	1,02	459,82
16	Chimqo‘rg‘on	1,29	5887,51	1,02	459,82
17	Guliston	1,29	5887,51	1,02	459,82
18	Mustaqillik	1,29	5887,51	1,02	459,82
19	Ko‘l-ota	1,29	5887,51	1,02	459,82

20	Kultepa	1,29	5887,51	1,02	459,82
21	Do‘ngqo‘rg‘on	1,29	5887,51	1,02	459,82
22	Mingtepa	1,29	5887,51	1,02	459,82
23	Fayzobod	1,29	5887,51	1,02	459,82

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)
1	Piskent tumani	1,00

Izoh: Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar bilan ishlash inspeksiyasi soliq to‘lovchilari bundan mustasno.

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Piskent tumani	1,05	1,05	1,05	1,05	1,05

Xalq deputatlari Piskent tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar
(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Piskent tumani	1,10	1,13	1,15	1,15	1,10	1,13	1,15	1,15

Xalq deputatlari Piskent tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, ba zalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Piskent tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,35	1,35

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Piskent tumani	1,10	1,00

***** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-97-10-142-K/25 -son qaroriga
10-ilova

2026-yilda tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

№	Hududlar bo‘yicha jami	2026-yil
1	Piskent tumani	416 500